

**FARG’ONA IQTISODIY RAYONI DARSIDA TA’LIMNI OG’ZAKI
METODIDAN FOYDALANIB TASHKIL QILISH**

Andijon davlat universiteti, Geografiya yo’nalishi

Isayev Akbarjon Abdulhamidovich

+998902690978

Arabboyev Asliddin Rafiqjon o’g’li

+998901403566

Annotatsiya

O’zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasining o’qitish metodlari asos qilib olingan o’quvchilarning bilim olishning asosiy metodlari ichida o’qituvchining jonli so’zi nutqi ya’ni og’zaki bayon metodi alohida o’ringa egadir. Jonli aytib berilgan mavzu o’quvchining ongiga tez va tushunarli yetib boradi, ularni mavzu bo’yicha alohida xulosalar qilishga undaydi. Og’zaki nutq darsda o’quvchining BKM elementlarini rivojlantirib qolmasdan ular Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga ega kuchdir. Ushbu maqolamizda O’zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy geografiyasining Farg’ona iqtisodiy rayoni darsida ta’limning og’zaki metodidan foydalanish bo’yicha atroflicha to’xtalib o’tildi.

Kalit so’zlar: Jonli nutq, og’zaki bayon metodi, hikoya, tushuntirish, muammoli vaziyat strategiyasi

KIRISH

Ta’lim sifatini oshirish borasida qator qarorlar qabul qilinmoqda. Shuningdek, yangi maktablar bunyod etilib, bir qancha maktablarda qaytadan rekonstruksiya ishlari olib borilyapti va sinf xonalari jahon talablariga mos ravishda jihozlanyapti, qolaversa, - “O’qituvchi” maqomi yanada yuksaltirilmoqda.

Bunga yaqqol misol sifatida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 5-sentabr kuni - “O’qituvchi maqomi to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish bo’yicha qaror imzolaganligini keltirish joizdir. Barchamizga ma’lumki, har bir o’qituvchi oldidagi muhim vazifa bu yosh avlodga sifatli ta’lim berishdir.

Maktablarda dars mashg‘ulotlarini qiziqarli va samarali tashkil etish uchun o’qituvchi bilimi, iqtidori va albatta, bor imkoniyatini ishga soladi. O’qituvchi ijodkor bo‘lishi, o‘z ustida ishlashi, tinimsiz izlanishi, yaratuvchanlik qobiliyati orqali o’quvchilar hurmati va mehrini to‘la qozona olishi lozim, shundagina - “O’qituvchi” degan ulug‘ maqomga erishadi. Shu boisdan, bugungi kunda respublikamizdagi maktablarda ayrim fan sohalari bo’yicha dars mashg‘ulotlari va ularni tashkil etish

bo‘yicha yaratilgan shart-sharoitlarni ilmiy - metodik jihatdan o‘rganish dolzarb vazifa hisoblanadi. Jumladan, aynan shunday fan sohalaridan biri bu - geografiyadir.[1]

O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasining o‘qitish metodlari asos qilib olingan o‘quvchilarning bilim olishning asosiy metodlari ichida o‘qituvchining jonli so‘zi nutqi ya’ni og’zaki bayon metodi alohida o‘ringa egadir. Jonli aytib berilgan mavzu o‘quvchining ongiga tez yetib boradi, ularni mavzu bo‘yicha alohida xulosalar qilishga undaydi. Og’zaki nutq darsda o‘quvchining BKM elementlarini rivojlantirib qolmasdan ular vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga ega kuchdir. O‘qituvchi nutqidagi mantiq, nutqning ohangi, urg’uning ifodalanishi, isbotlarning jonli va ishonarli bo’lishi o‘quvchi-yoshlarning ongiga, his-tuyg’ulariga kuchli ta’sir ko’rsatadi, ularni mustaqil fikrashga o’rgatadi. Mavzu yuzasidan jonli nutq o‘quvchilarning o‘rganishidagi boshqa manbalar: ko’rgazmali quollar va matnlarning mazmun-mohiyatini tushinishga, ular ustida mustaqil ishlashga, fikr-mulohazalar yuritishga ham yo’l ochib beradi. Bu vazifa esa hozirgi kunda yosh avlod oldida turgan muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Geografiya fanini maqsad va vazifalari turli davrlarda o‘zgarib va qaytadan shakillanib, sayqallanib turgan. O‘qitishni maqsadini aniqlash qadimdan didaktika va o‘qitish metodikasining eng muhim muammolaridan hisoblanib kelmoqda. Ushbu muammoni qanday yechish bilan maktab geografiyasining tuzilishi, mazmunini va o‘qitish metodlarini turlari bog’liq. Oxirgi davrlarda, asosan XX asr davomida o‘qitish maqsadini ishlab chiqish muammosiga katta e’tibor berildi. Hozirgi davrda ham geografiya ta’limining mazmunini o‘zgarishi munosabati bilan mazkur muammoga yanada ko’proq e’tibor berib kelinmoqda. [2]

Rossiyada geografiya fanini va uni o‘qitish metodikasini rivojlanishida M.V.Lomonosov va X.Chebotarev katta xizmat qilishdi. XVIII asrning ikkinchi yarmida X.Chebotarev Rossiya imperiyasini geografik va metodik tavsifi nomli darsligini nashrdan chiqardi. Mazkur davrda geografiya ikkita sinfda o‘qitilgan: III sinfda Umumiyligi geografiya, IV sinfda Rossiya geografiyasi o‘qitilgan.

XIX asrning boshlarida Yevropa davlatlari va Rossiyada barcha o‘quv muassalarida geografiya ta’limi joriy qilingan. 7 yillik gimnaziyalarning

3- sinfidan 8-sinfiga qadar geografiya predmeti o‘rganilgan. Geografiya predmeti bo‘yicha haftalik soatlar miqdori 14 soatni tashkil qilingan. Mazkur davrda metodik-olimlar Ye.F.Zavyalov, K.P.Arsenov darsliklari bo‘yicha geografiya predmeti o‘rganilgan.

XX asrning boshlarida Geografiya o‘qitish metodikasini rivojlanishida D.N.Anuchin, N.Revskiy, A.Sokolev, E. Petri, Ya.Rudnev, V.Budanov, S.Arjanov va boshqalarning ishlari katta ahamiyatga ega bo’ladi. Mazkur olimlar tomonidan Oberlender metodikasi yanada takomillashtirildi va rivojlantirildi. [3]

X.B.Nikadamboyeva, D.I.Ro’ziyeva, Z.A.Qarabazovlar o’zining O’rta Osiyo geografiyasini interfaol metodlardan foydalanib o’qitish imkoniyatlari (Uslubiy qo’llanma) kitobida amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o’rganishlariga ko’ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyalari muayyan shakkarda o’zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya’ni shaxs(o’quvchi): manbani o’zi o’qiganda 10 foiz, ma’lumot (axborot)ni eshitganda 20 foiz, sodir bo’lgan voqeа, xodisa yoki jarayonni ko’rganida 30 foiz, sodir bo’lgan voqeа, xodisa yoki jarayonni ko’rib, ular to’g’risidagi ma’lumotlarni eshitganida 50 foiz, ma’lumot (axborot)larni o’zi ulashganda (so’zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 foiz, o’zlashtirilgan bilim (ma’lumot, axborot)larni o’z faoliyatiga tatbiq etganida (nazariyotda o’rgangan bilimlar axborot va ko’nikmalarini amaliyotga joriy etganida) 90 foiz hajmdagi ma’lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega ekanliklarini yozgan. [4]

O’zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi ta’limida og’zaki bayon metodlari bilim berishning asosiy va muhim metodlaridan biri hisoblanadi. Chunki, ushbu o’qitish metodlarini barcha turlarini qo’llaganda mazkur metod u yoki bu shaklda albatta qo’llaniladi. Ma’ruzachining Farg’ona iqtisodiy rayoni mavzusida og’zaki bayoni quyidagi talablarga javob berishi lozim:

-ilmiy jihatdan mavzu matni to’g’ri bo’lishi va ilmiy asoslangan bo’lishi lozim. Ya’ni ma’ruzachi tomonidan darslikda berilgan mavzu matnini uning asosiy xususiyatlari, iqtisodiy rayonning mamlakatimiz iqtisodiyoti va boshqa ijtimoiy sohalarda muhim o’rin egallashini turli xil qo’shimcha adabiyotlar, statistik ma’lumotlarni tahlil qilgan holda o’quvchilarga tushuntirib berishi kerak.

-bilimlar mantiqan to’g’ri bo’lishi lozim.Ya’ni ma’ruzachi tomonidan berilgan bilimlar va ularning jumlalari bir-biriga mos kelishi, mantiqan to’g’ri yondashilgani haqida tushuncha hosil qilmog’i lozim.

- bilimlar o’quvchilar uchun murakkab bo’lmasligi, oson hamda tushunarli bo’lishi kerak. Masalan, Farg’ona iqtisodiy rayoni – mamlakatimizda o’ziga xos geografik joylashuviga ko’ra ijobjiy va salbiy tomonlari mavjud. Ijobiy tomonlari iqtisodiy rayonda aholi sonining ko’pligi tufayli mehnat resurslariga ehtiyoj boshqa iqtisodiy rayonlarga nisbatan past, gidroenergiya boyliklari mavjud bu esa tabiiy geografik o’rnining qulayligidan dalolat beradi.

-o’qituvchi mavzuni tushuntirib berayotganida og’zaki nutqi qiziqarli faktlardan iborat bo’lishi zarur. Masalan, qo’shimcha adabiyot sifatida universitet darsliklari, internetdagi yangi vikipedia ma’lumotlari, ko’rgazmali vositalar bo’lishi kerak.

- bayon qilib berish me’yorida bo’lishi va uni o’quvchilar yozib olishga ulgurishi lozim. Ushbudan asosiy maqsad bayon bu darsning asosiy qismidan biri sanaladi.

-darsni qiziqarli va mazmunli tashkil etish maqsadida mavzuga oid og’zaki bayon boshqa interaktiv metodlar bilan qo’shib olib borilishi kerak.

-og'zaki bayonda o'qituvchi adabiy tillardan foydalangan holda, nutqi yaxshi rivojlangan bo'lishi lozim.

NATIJALAR

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasining Farg'ona iqtisodiy rayoni darsida og'zaki bayon usullari to'g'ri qo'llanganda u o'quvchilarda quyidagi xususiyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

- o'qituvchining fikrlarni kuzatib borish ko'nikmasini rivojlantiradi;
- mavzuga oid geografik bilimlar va ular orasidagi aloqalarni yaxshi qabul qiladi;

-mavzu yuzasidan og'zaki bayonda asosiy fikrni o'zlashtirish ko'nikmasi shakllanadi. O'qituvchi tomonidan o'quv materialini aniq bir mantiqiy yo'nalishda ochib berishni o'quvchilarda tafakkurni rivojlanishiga yordam beradi. Og'zaki bayon metodini afzalliklaridan biri shundaki, unda 15-20 minutda ma'lum bir hajmli material beriladi va vaqtan samarali foydalaniladi. Og'zaki bayon metodlarini qator yutuqlari bilan birga kamchiliklari ham mavjud. Ayrim vaqtarda og'zaki bayon metodlari o'qitishning asosiy metodiga aylanib qolishi mumkin, bunda o'quvchilarda mustaqil ishlarni bajarish ko'nikmalari shakllanmaydi yoki mazkur ishlarga kam e'tibor beriladi.

O'quvchilarda eshitish ko'nikmasi asta-sekin shakllanadi. Shuning uchun turli sinflarda og'zaki bayon davomiyligi turlicha bo'ladi. Quyi sinflarda og'zaki bayon qisqaroq, yuqori sinflarda esa darsni to'liq egallashi mumkin. O'qitishning og'zaki metodlari quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1.Tushuntirish;
- 2.Hikoya;
- 3.Suxbat;
- 4.Ma'ruza;
- 5.O'qib berish va b.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasining Farg'ona iqtisodiy rayoni darsida yuqoridagi og'zaki usullar yordamida birma-bir ko'rib chiqamiz.

Tushuntirish metodi – darslik va boshqa o'quv materiallarini egallash shakli bo'lib, o'quvchilarga Farg'ona iqtisodiy rayoni mavzusidagi tabiiy hamda iqtisodiy-ijtimoiy geografik jarayonlarni kengroq ochib berish uchun qo'llaniladi.

Hikoya metodi – mazkur metod o'quv materiali va darslikni bayon qilish shakli bo'lib, asosan tasvirlash xususiyatiga egadir. Ushbu metodda o'qituvchi Farg'ona iqtisodiy geografik rayonining tabiiy va iqtisodiy xaritasida muhokama qilish uchun o'quvchilar bilan ko'proq muloqot qiladi. Ya'ni Farg'ona iqtisodiy geografik rayonining relyefining vujudga kelishida qanday omillar ta'sir ko'rsatgan? O'qituvchi karta orqali iqtisodiy rayonga xos bo'lgan belgilarni ajratadi va shu bilan ularda tushuncha va tasavvurlar hosil bo'ladi. Mazkur metodning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati mavzu bo'yicha faktlarni to'g'ri va aniq tanlanishiga bog'liq. Hikoya mazmuni orqali

o’quvchilarda o’zining tajribasi bilan o’qituvchi tomonidan aytilgan hikoya orqali qo’shilib unda kechinma va his-tuyg’ularni vujudga keltiradi.

Suhbat metodi – ta’limning og’zaki interfaol metodi sifatida egallashning va egallagan bilimini sinashning savol-javob shaklidir. Bunda metodda asosiy o’rinni o’qituvchining savoli va o’qituvchining javobi egallaydi. Ya’ni o’qituvchi mavzu yuzasidan o’quvchilariga savollar bilan yuzlanadi va o’quvchilar tomonidan savollariga javob beriladi. Suhbat metodida o’quvchilar jamoasini mavzu yuzasidan olgan bilimlarini sinash maqsadida muammoli ta’lim tehnologiyasidan foydalangan holda biron-bir muammoni o’rtaga tashlash orqali o’quvchilar jamoasini faolligini, ularning fikrlash, darslik bilan ishlash hamda qo’shimcha materiallardan foydalanishga chorlovchi savollar bilan ham murojaat qilish mumkin. Masalan, Farg’ona iqtisodiy rayonida ishsizlik muammosini qanday xal qilish yo’llari mavjud?

Ma’ruza metodi – ushbu metodda mavzuni ravon, ilmiy va izchillik asosida bayon etilishi tushuniladi. Ma’ruza taxminan 30-40 minut davom etadi. Qolgan vaqtini esa tashkiliy qism va uyga beriladigan topshiriqlar egallaydi. Bu metodlarni og’zaki metodlarning boshqa usullari bilan aralashtirilib, mazmunli olib borilsa uning samarasi yuqori bo’ladi. Ma’ruza o’qituvchidan dars jarayonida puxta tayyorgarlik talab qiladi.

O’zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasining Farg’ona iqtisodiy rayoni darsida ma’ruzaga tayyorlanishda quyidagi dastur asosida ish ko’rish maqsadga muvofiq:

- Farg’ona iqtisodiy rayoni mavzusi bo’yicha o’quv materiallari va darsliklarni puxta o’rganish.

- Ushbu mavzu yuzasidan qo’shimcha materiallar(universitet darsliklari), va eng yangi internet ma’lumotlari bilan boyitish.

- Ma’ruzaning rejalarini tayyorlash, unda darsning vazifalari, jihozlari, o’qituvchi va o’quvchi faoliyati hamda uyga topshiriq belgilanishi kerak.

O’qib berish – ushbu usul samarali hisoblansada ta’limning boshqa usullari bilan uzviy bog’liq holda olib borish yaxshi natija beradi. Mazkur usul orqali o’quvchilarni darsga bo’lgan ishtiyoqini oshiradi, ularni izlanish, o’z ustida ishlash kabi ko’nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa o’rnida shuno aytish o’rinligi, og’zaki ta’lim orqali biz o’quvchilarda ravon nutqli hamda biron-bir narsaga o’zining pozitsiyasini egallaydigan shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isayev A. A., Mahmudov M. M. MATERIKLAR VA OKEANLAR TABIIY GEOGRAFIYASI KURSINI O ‘QITISHDA O ‘QUVCHILARDA SHAKLLANADIGAN GEOGRAFIK TUSHUNCHALAR.

2. Isayev A. A., Inomjonova D. The Influence of Transport Factor on the Development of Urban Agriculture in the Fergana Valley //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 249-254.
3. M.S.Saidova, G.R.Bozorova <https://cyberleninka.ru/article/n/umumta-lim-maktablarida-geografiya-fanidan-darslarni-tashkil-etishdagi-ba-z-i-muammolar-va-ta-lim-jarayonida-axborot/viewer - 269-273> b.
4. Vahobov H, Mirzamahmudov O.T – Geografiya o'qitish metodikasi (uslubiy qo'llanma) – 6 b.
5. Vahobov H, Mirzamahmudov O.T – Geografiya o'qitish metodikasi (uslubiy qo'llanma) – 24 b.
6. M.N.Xabibullayeva, A.R.Arabboyev, Sh.M.Abdug'ofurov <http://www.wsrjournal.com/index.php/new/article/view/140/34> - 176-182 b.
7. Isayev A.A., Abdurahmonova H. Farg'ona vodiysi shahar aglomeratsiyalari rivojlanishiga transport omilining ta'siri // Journal of Geography and Natural Resources. <http://sjifactor.com/passport.php?id=22047>
<https://topjournals.uz/index.php/jgnr> <https://doi.org/10.37547/supsci-jgnr-02-02-02>
8. А.А. Исаев Ўзбекистонда автомобиль ва жамоат транспортида йўловчи ташиш динамикасидаги ўзгаришлар // Journal of Geography and Natural Resources.<http://sjifactor.com/passport.php?id=22047>
<https://doi.org/10.37547/supsci-jgnr-02-03-03>